

2017 yil yanvar—sentyabr oylari



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar—sentyabr oylarida 778,8 mln.AQSh dollarini, shu jumladan eksport 181,2mln.AQSh dollarini va import 597,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosı – 416,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,2 foizga oshib, xizmatlar eksporti esa 18,1 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 69,7 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 73,9 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar—sentyabr oylarida 511,7 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 152,6 mln. AQSh dollarini va import 359,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.






Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 48,0 foizini mashina va asbob-uskunalar, 26,4 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 11,5 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 33,8 foizni va safarlar xizmati 27,3 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 48,0 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 5,1 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (52,1 foiz) eksport hajmining yarmidan ko'prog'ini tashkil etdi.




2017 yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –416,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –33,0 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –383,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2017 yil yanvar—sentyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma’lumotlarda tavsiflanadi:


	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	181,2	109,1	100
paxta tolasi	2,4	-	1,3
oziq-ovqat mahsulotlari	94,4	94,8	52,1
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	5,3	107,5	2,9
qora va rangli metallar	4,7	29,0	2,6
mashina va asbob-uskunalar	9,2	119,2	5,1
xizmatlar	20,8	118,1	11,5
boshqalar	44,5	153,0	24,5
Import	597,6	118,8	100
oziq-ovqat mahsulotlari	67,1	108,9	11,2
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	157,8	95,1	26,4
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,6	81,9	0,3
qora va rangli metallar	21,4	106,7	3,5
mashina va asbob-uskunalar	286,9	137,3	48,0
xizmatlar	3,5	93,6	0,6
boshqalar	59,3	149,2	9,9

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 23,2 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 76,8 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.


2017 yil yanvar—sentyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Eksport



Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 69,7 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,1 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 30,1 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,8 foizini tashkil qildi), 34,9 foizini mevalar (81,4 foizini), 34,2 foizini uzum (85,6 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 43,4 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (91,5 foizni) tashkil qildi.




Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 23,6 foiz), Rossiya (13,9 foiz), Iroq (8,5 foiz), Xitoy (8,9 foiz), Turkiya (13,9 foiz), Belarus(3,0 foiz) va Eron Islom Respublika(4,8 foiz)lari hisoblanadi.

Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 34,5 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 86,0 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,3 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 22,1 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,0 foizni, sabzavotlar 30,9 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68,2 foizni), **uzum** 31,6 ming tonnani (112,9 foizni), **yer yong'oq** 492,8 tonnani (34,2 foizni), **qovun va tarvuz** 918,2 tonnani (3,6 martani) tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel: 71-230-85-23